

**MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH SINFLARDA
INGLIZ TILI O'QITISHDA HIKOYA USULIDAN FOYDALANISH**

*Ismailova Gulnoza Odiljon qizi
Namangan Davlat Universiteti*

Annotation: This article suggests storytelling as one of the effective ways of teaching English in EFL classes. In this article, some advantages and hints of using this method are clarified. As well as these, the article focuses on how to organize excellent classes in kindergarten and in elementary schools by using this storytelling method.

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar hamda maktabgacha ta'lismuassasasida ingliz tili o'qitishda hikoya qilish usulidan foydalanish, va darslarni hikoya usuli yordamida qanday tashkil etish yoritilgan.

Аннотация: Эта статья предлагает рассказывающий метод как один из эффективных способов преподавания английского языка на АИЯ.

Tayanch atamalar: Hikoya aytish, ovoz mexanikasi, yuz ifodalari, voqealar rivoji, innovatsiya.

Maktabgacha ta'lismuassasalari va boshlang'ich sinflarda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish jarayonida hikoya aytish usuli bolalar uchun eng qiziqarli usullardan hisoblanadi. Bu yoshda, bolalar shaxsiy, ijtimoiy, emotsiyonal rivojlanish jarayonini o'tayotgan bo'lishadi va bilim orttirish bilan bir qatorda dunyoni tushunishni boshlashadi, Xalq og'zaki ijodi sifatida, hikoya aytish turli yoshdagilar va turli qobiliyatlar uchun oson kechadigan oddiy, kunlik mashg'ulotdir. Maktabgacha ta'larning kichik guruhlarida til o'rganish vositasi sifatida esa, hikoya aytish erta yoshdagagi til o'rganuvchilarni o'zlaridagi yagona ifoda etish qobiliyatlarini ochib beribgina qolmay, ularning his tuyg'ularini, o'y-fikrlarini erkin ommaga taqdim qila olishga bo'lgan qobiliyatlarini kengaytiradi.

Hikoya aytish asosan til o'rganish va o'rgatishda judayam foydalidir. Hikoya qilish bilan mashg'ul bo'lgan bola albatta tarix va madaniyat haqida o'rganadi, ruhiy jihatdan rivojlanadi va o'ziga bo'lgan hurmati va ishonchi oshadi. Bolalar hikoya va ertaklarni eshitishni bag'oyat yoqtirishadi, lekin ingliz tili yoki boshqa bir tilni ikkinchi til sifatida o'rgatayotganda, aytish uchun qanday hikoyani tanlash juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili ikkinchi til hisoblangan muassasa kichik guruhlarida hikoya aytish – tasavvur etish va turli imo-ishoralarni o'z ichiga oladi. O'qitish metodi sifatida, hikoya aytish aniqlik talab etmaydi. Uning asosiy maqsadi ramziy ma'no berish va bolalarga o'rganilayotgan chet tilida hikoya yaratishni osonlashtirishdir. Aka – uka Grim ertaklari yoki Hans Christian Andersendan biron bir hikoya yoki ertak ushbu metodni qo'llash uchun yaxshi tanlov bo'la oladi. Quyida til o'rgatuvchilarimizga asqotadigan hikoyalar:

Cinderella,	The Little Red Riding Hood,	The Snowqueen,
Snowwhite,	Hansel and Gretel,	The Little Mermaid,
Alphabet hide and seek,	The chocolate shop,	Tortoise and hare story
Giant pandas story,	the Bat,	Pug story,
Thumbelina,	The Little Match Girl,	The Ugly Duckling...etc.

Albatta yuqoridagi hikoyalar til o'qitish mashg'uloti jarayonida, qisqartirilgan uslubda foydalaniladi. Tanlangan hikoya dialoglar va rasmlarga boy bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalarga hikoya aytish usuli o'qituvchi va o'rganuvchini munosabatga kirishishini ko'zlagani uchun, biz bu metod faqat bolalar uchun deya olmaymiz. Ushbu metod uzoqroq vaqt kichik bosqichlarda amalga oshiriladi. Bu mashg'ulot har uchta darsning birida yoki o'qituvchi darsni tashkil etishiga qarab har darsning 10-15 minutida amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Shuni aytib o'tish joizki, bu metodga qiziqtira olish uchun o'qituvchi dars boshida yaxshi ochish qila olishi kerak, deylik bolalarga bugungi darsda xonadan chiqmagan holatda boshqa joyga borishlarini yoki o'qituvchi ham bolalar ham butkul boshqa boshqa insonlar yoki mavjudotlar bo'lislari aytish bilan ulardagi qiziqishni alangalata olamiz.

O'zaro munosabatda bo'lish bu o'qituvchi bolalarni hikoya davomida boshqarishi, bolalarning o'z roli borligi hamda berilgan dialog qismlarini o'qituvchidan keyin aytishlarini anglatadi. Kichkintoylar hikoya qaysi qismni aytishlarini yodlashadi va ayni bu jarayon hikoya aytish mashg'ulotidan, rol o'ynash va sahnalashtirish jarayonlariga bog'lanib ketadi. Hikoya aytishdan keyin, bu ikki usul kichik sahna ko'rinishi yaratishga zamin yaratadi. Har bir bola yoki guruh hikoyaga ko'ra o'z roliga ega, o'qituvchi esa moderator va ular birgalikda chet tilida gapirish uchun harakat qilishadi. Ushbu mashg'ulotlarga uzoq vaqt va tayyorlanish ketishi mumkin, lekin rolga belgilangan kiyimlar va niqoblar bilan, natija ota-onalar va bolalarga ma'qul keladigan ajoyib sahna ko'rinishi bo'lishi mumkin. Va albatta, buning bari o'qituvchi uchun katta yutuq sifatida xizmat qiladi.

Hikoya aytish jarayonida quyidagi asosiy qoidalarni yodda tutish lozim:

- 1) Innovatsiya – til, tovush, va imo-ishoralarga ijodiy va o'zgacha yondashish. Ya'ni voqealar rivojini ijodiy namoyon etib berish.
- 2) Ovoz mexanikasi (ovozi mohiyati)- bolalarga ular eshita oladigan (na baland, na past) ovozda gapirish. Zerikarli bo'limgan, hikoyaning ma'nosini ochib beradigan vokal ifodalardan foydalanish. Kerak bo'lganda baqirib, pichirlab, va past ovozda gapirish. Hikoya qahramonlari ovozlarini o'z ovozingizdan sezilarli darajada farqlash.

3) Diqqat markazida bo'lish – diqqatni eng yuqori cho'qquisida tuting. O'quvchilar bilan ko'z aloqasini ushlab turish zarurdir. Bolalarga voqealar rivojini eslatib turish uchun rasmlardan foydalanish bizni ko'zlagan maqsadimiz bo'lisi lozim.

4) Tashqi mimika muhim – hikoya aytishda nafaqat tilimiz balki butun bir tanamiz hikoya ayta olishi kerak. Hikoyaning asosiy ma'nosini olib berish uchun turli xil tana harakatlaridan va mimikalardan, yuz ifodalaridan foydalanish zarurdir. Hikoya aytayotganimizda, so'zlarimizni harakatlarga moslashtirib (misol uchun eshikni qoqib, xona bo'ylab yurib va boshqa so'zlarimizga bog'liq harakatlar qilib) aytganimiz ma'qullanadi.

Hikoya aytishda rasmlarning ahamiyati judayam katta; birinchi o'qituvchi hikoyani o'qiydi, keyin voqealar ketma-ketligi bolalar hayolida qolishi uchun rasmlarni ko'rsatadi.

Hikoya aytishning quyidagi foydali tomonlari bor:

Hikoya aytish usuli til mahoratlarini masalan, so'z boyligi bashorat eta olish qobiliyati, tushunish va analiz qila olish, hamda eslash kabi qator qobiliyatlarni bolada shakllantiradi yoki rivojlantiradi.

Bu usul bolalar xotirasini mustahkamlaydi. O'rganuvchilar qaxramonlar ismlarini va voqealar rivojini eslab qoladi. Ulardagi eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchidan eshitgan hikoyani aytib berishini so'rashi lozim.

Hikoya usuli yordamida yosh bolalar o'zlarining dunyo qarashlarini oshira oladi. Hikoyalar orqali hayot tarzini, qadryatlarni, dunyodagi turli mamlakatlar madaniyatini o'rganadi. Hikoya qaxramonlarining harakatlaridan esa hayotdagi oq va qorani ajrata oladi.

Hikoya bolalar e'tiborini tortish uchun eng samarali usul. Bolalar hikoya aytish usulidan foydalaniladigan muhitda ingliz tilini juda ham qiziqarli fan deb hisoblashadi va unga boshqacha munosabatda bo'ladi.

Yana shuni aytish joizki, hikoya aytish yosh o'rganuvchilarimizda ingliz tilida eshitish va gapiresh maxoratlarini yuksaltiradi. O'qituvchi hikoya aytganda, o'quvchilar diqqatlarini uning intonatsiyasi va talaffuz qilishiga qaratadi. Undan keyin esa, ular butun bir gap yoki har bir so'zni aytishga taqlid qilishadi. Shuning uchun ularning gapiresh va tinglash qobiliyatları asta sekin rivojlanadi.

Mashxur olim Kieran Eganning (1992) aytishicha hikoya aytish usulidan foydalanib ta'lim berish, biz uchun butun o'qitish dasturini madaniyatimizning hikoyalar to'plami deb yuritishimizga undaydi. Shunday ekan biz o'qituvchilarni o'qituvchi deb emas, balki ma'daniyatimiz hikoyalarini yetkazib beruvchilari sifatida ko'ramiz

" Inson miyasida rasmlarni shakllantirish va hayol qila olish bu hikoya aytishning ayni qoq markazidadir, nafaqat tinglovchi uchun balki so'zlovchin uchun ham

muhimdir” (Cooper, Collins,&Saxby, 1992.p.9). Bu fikrlar shuni ko’rsatadiki, hikoya aytishning asl mohiyatini anglash uchun, uni hayolda aks ettira olish kerak.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, hikoya aytish farzandlarimiz, ya’ni yosh avlodga nafaqat ingliz tilini o’rgatadi, balki hikoyalar ular ruhini poklaydi, madaniyatini shakllantiradi. Hikoya aytish ularda xalq og’zaki ijodiga bo’lgan muhabbatini oshiradi. Hikoya aytish usuli o’rganuvchi ongida to’g’ridan to’g’ri gavdalangani uchun, ularda aytilgan har bir so’zni yodlarida mukammal saqlanishini ta’minlaydi va bu esa bolalarda ingliz tilida so’z boyliklarini oshirishlariga yo’l ochadi. Mashxur bolalar va kattalar yozuvchisi J.k. Rowling so’zlari bilan aytganda ”Bu hayotda har doim odamlarni u joydan bu joyga olib borish uchun hikoyalarga ehtiyoj tug’ilaveradi.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “ Imagination in teaching and learning” by Kieren Egan. 1992.
2. Internet sources
3. “The power of story” (Cooper, Collins,&Saxby, 1992.p.9).